

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

SH. YULDASHEVA, D. KABULOVA, M. SOBIROVA

O`ZBEK TILI

O`quv qo`llanma

NUKUS
"BILIM"
2013

UDK 811.512.133(075)
ББК 81.2 О'zb
О'-92

О'zbek tili. О'quv qo'llanma. Nukus.
«Bilim» nashriyoti, 2013. 156 b

Маллифлар: **Yuldasheva Sh.**
Kabulova D.
Sobirova M.

UDK 811.512.133(075)
ББК 81.2 О'zb
О'-92

Qo'llanma bakalavr ta'lim yo'nalishining qoraqalpog' guruhlarida tahsil olayotgan talabalar uchun tayyorlangan. Unda kundalik turmushda keng qo'llaniladigan nutqiy mavzular va nutq o'stirish bo'yicha egallanishi zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar e'tiborga olingan holda dasturda ko'rsatilgan 24 ta nutqiy mavzu bo'yicha 70 soatga mo'ljallangan har bir mashg'ulot uchun o'quv materialli keltirilgan.

Mas'ul muharrir:

Eshboy Xo'janiyozov — Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Ilhom Kazakov — Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nazira Turabayeva — Filologiya fanlari nomzodi

Qo'llanma Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O'quv-metodik Kengashining 2013-yil 28-maydagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-4187-9-0

© "Bilim" nashriyoti, 2013-yil

MAS'UL MUHARRIRDAN¹

Har bir mustaqil davlat jahon hamjamiyatida o'zining iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy siyosati bilan o'zini tanitadi va o'ziga xos milliy xususiyatiga ega bo'ladi. Bu boshqa sohalarda bo'lgani kabi uning til siyosatida ham namoyon bo'ladi. Zotan, til siyosati har bir davlat ichki va tashqi siyosatining ajralmas bo'lagidir. O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston ham o'zining til siyosatini belgilab olishi, milliy tilining nufuzini ko'tarishi va uning qo'llanilish xizmat va vazifalariga yangi ufqlar ochishi zarurati paydo bo'ldi. Vaholanki, tilimiz Sobiq Ittifoq davrida ikkinchi darajali til maqomiga tushib qolgan, jamiyatda o'z xizmat va vazifalarini ado etishda yillar o'tgan sayin o'mini boshqa bir tilga — rus tiliga bo'shatib bera boshlagan bir davr edi. Shunday bir sharoitda o'zbek tilining obro'sini saqlab qolish, ijtimoiy xizmat va vazifalarini keng miqyosda amalga oshirish, boshqa bir tilni "ikkinchi ona tilimiz" deb hisoblab yurgan xalq ruhiyatiga bu tilga bo'lgan muhabbat hissini singdirish kabi buyuk vazifalar turardi. Demokratik jamiyat, adolatli huquqiy davlat barpo etayotgan mamlakatimiz til siyosati masalasida ham hududida istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning sha'ni va g'ururiga tegmaydigan, ularning insoniy va konstitutsiyaviy huquqlarini poymol qilmaydigan, teng huquqliligini ta'minlaydigan til qonunini qabul qilishga intildi.

80-yillar oxiriga kelib sobiq mustabid tuzum sharoitida yashagan va uning til siyosatidan norozi bo'lgan turli millat va elatlar o'z ona tillarining muhofazasiga kirishdilar. Ikki yil davomida 1989–1991-yillar oralig'ida 15 ta sobiq ittifoqdosh respublikalarda va 20 dan ortiq avtonom respublika va viloyatlarda til qonunlari qabul qilindi. Pirovardida bunday qonun Sobiq Ittifoqning tayanchi, uning markazini tashkil qiluvchi Rossiya Federatsiyasida ham qabul qilindi². Ularning barchasida mustabid tuzumning til siyosati sohasidagi nuqsonlari, kamchiliklari, milliy shovinizm illatlari tanqid qilindi va o'zlarining kelajakdagi milliy til siyosatlarining yo'nalishi bayon qilindi. Qizig'i shundaki, til siyosati sohasidagi nojo'yalik rus tilini ham chetlab

¹«Fan va jamiyat» jurnalidan olindi.

² Туманян И.Т. Законы о языках и возможности их реализации. «Язык в контексте общественного развития». —М.: 1994. 76 с.

o'tmaganligi, u ham ancha zarar ko'rganligi, boshqa millat va elatlarning haqli nafratiga sazovor bo'lganligi tan olindi¹.

Sobiq Ittifoq tarkibidagi jurnahuriyatlarda qabul qilingan davlat tillari haqidagi qonunlar mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ulardagi bayon qilingan ta'riflarda tilga munosabatda ikki tendensiyani, yo'nalishni kuzatish mumkin:

1. Til ekspansiyasi (majburiyligi). Bunda biror millat o'z tilini davlat tili deb e'lon qilib, o'sha hududda yashayotgan boshqa millatlarga o'z tilini majburan singdirishga, uning keng tarqalishiga imkon yaratishga harakat qiladi. Bunday holat Pribaltika mamlakatlarida hukm surmoqda².

2. Til nigilizmi (mensimasligi). Bunda o'z ona tilining, ya'ni tub yer aholi tilining istiqboli yo'qligini yoki kelajakda funksional yaroqsizligini nazarda tutib, o'z ona tiliga mensimadan munosabatda bo'lib, boshqa tilga (masalan, rus tiliga) imtiyoz berish til nigilizmi yoki mensimasligi deb ataladi. V.Y. Mixalchenko bu hodisa O'rta Osiyoning ba'zi xalqlarida, ba'zi bir hududidagi xalqlarda kuzatilishini aytib o'tgan edi³.

O'zbekiston hududida tilga munosabatda har ikki holat ham kuzatilmaydi va uning hududidagi xalqlar o'z ona tillariga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'ladilar va O'zbekiston Respublikasining til siyosati yuqoridagi kabi holatlarga aslo yo'l qo'lmaydi.

O'zbekistonda Davlat tili haqidagi qonun ikki marta qabul qilindi. Birinchi marta u 1989-yil 21-oktabrda (O'zbekiston SSR Davlat tili qonuni sifatida), ikkinchi marta esa u 1995-yil 21-dekabrda (Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Davlat tili qonuni sifatida) qabul qilindi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, «Bu qonun o'sha paytda boshqa respublikalarda qabul qilingan tilga oid hujjatlardan o'zining demokratik mohiyati bilan ajralib turadi»⁴. Uning demokratik tamoyillari nimadan iborat edi? Biz quyidagilarni O'zbekiston Respublikasi Davlat tili haqidagi qonunining demokratik tamoyillari sifatida ko'rsatib o'tmoqchimiz:

1. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi uning hududida yashovchi boshqa millat vakillari ona tillarining qo'llanishi, rivojlantirilishini cheklamaydi, balki keng imkoniyatlar ochib beradi.

¹ Алпатов В.М. Общественные сознание и языковая политика в СССР (20-40 гг) «Язык в контексте общественного развития». —М.: 1994 —с 30

² Михалченко В.Ю. Языковые проблемы содружества независимых государств. «Язык в контексте общественного развития». —М.:1994, —с 13

³ Михалченко В.Ю. Языковые проблемы содружества независимых государств. «Язык в контексте общественного развития». —М.:1994,—с 13-21.

⁴ Каримов И.А. Юсак маънавият — энгилмас куч. —Т.: 2008. —85 бет

2. Ko'pchilik davlat tilini o'zlashtirmagan jamoalarda rasmiy qog'ozlarni boshqa tilda olib borishga ruxsat qilinadi.

3. Millatlararo tilni tanlash erkinligi kafolatlanadi.

4. Ta'lim tilini tanlash erkin (ta'lim 7 tilda olib boriladi).

5. Nashr qilish ishlari xohlagan tilda amalga oshiriladi.

6. Ishga qabul qilishda til farqlariga qaratilmaydi.

7. Milliy markazlar, jamoalarni tashkil qilish, ularning muhrlari va qog'ozlarini o'sha tillarda yozish ruxsat qilinadi.

8. Yuqori tashkilotlarga, muassasalarga, rahbariyatga istagan tilda murojaat qilish va javoblar olishga ruxsat qilinadi.

9. O'zbekiston hududida tillarga, milliy urf-odatlariga mensimay munosabatda bo'lish qonun bilan ta'qiqlanadi.

10. Til to'g'risidagi qonundagi holatlarga to'sqinlik qilish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Ko'rinadiki, bular "Til va jamiyat" kitobi mualliflarining ko'rsatganidek, "o'zbek tilini davlat tili deb e'lon qilish, uni majburiy joriy qilish yoki boshqa tillar imkoniyatlarini pasaytirgan holda unga sun'iy ravishda alohida nufuz, obro' yaratishni anglatmaydi. Aksincha, bu tarixiy voqea ilk marta O'zbekiston tarixida uning hozirgi zamon til siyosati uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi"¹.

F.f.n., dots. E.Xo'janiyozov

¹ Абдуллаев Ю., Бушуй А. Язык и общество. — Т.: ФАН, 2002, —с 295

KIRISH

"Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi tufayli mamlakatimiz hududida o'z madaniyati va an'analariga ega bo'lgan 130 dan ziyod millat vakillari farzandlarining o'zbek tilini yanada samaraliroq o'rganishlari uchun yetarli shart-sharoit yaratilishi natijasida ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan o'quv maskanlarida davlat tilini o'qitishga bo'lgan munosabat o'zgardi.

Davlat tilini o'rganish mamlakatimizda yashovchi har qanday millat vakilining madaniyati darajasini ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Bu borada ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan o'quv muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy layoqati va mahorati hozirgi davrda o'z kasbi doirasida qo'llanadigan soha terminlarini, davlat tilida ish yuritish malakasini, nutq madaniyati asoslari hamda notiqlik me'yorlarini ham bilishni taqozo etmoqda.

Ta'lim rus va boshqa mahalliy tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitish barcha ijtimoiy fanlar ichida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda yashab, o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lib, barcha sohalarida erkin fikr almashish hamda mutaxassisliklari doirasida davlat tilida ish yuritish uchun o'zbek tilini yetarli darajada egallashlari ko'zda tutiladi.

O'zbek tili davlat tili sifatida bakalavriatning birinchi bosqichida o'qitiladi.

O'zbek tili fanining asosiy mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi.

1. O'zbek tilida erkin muloqotga kirishish va ish yuritish malakasini egallash (nutqiy kommunikativ malaka).

2. Til materiali va vositalari, xususan, ixtisoslik leksikasini nutqda qo'llay bilish uchun yetarli bilimlarni o'zlashtirish (grammatik bilim va malaka).

3. Milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash (milliy ma'naviy madaniyatni egallash malakasi).

Ushbu mazmun asosan nutqiy kommunikativ malakani egallash orqali o'zbek tilini o'rgatishning umumta'limiy maqsadini, milliy madaniyatni egallash malakasi esa tarbiyaviy maqsadni ko'zda tutadi¹.

¹O'zbek tili fanidan namunaviy dastur (bakalavr yo'nalishi uchun). – Toshkent, 2011. 3-b.

O'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishda quyidagi **maqsadlar** alohida ko'zga tashlanadi:

1) tilning kommunikativ – aloqa, muloqot vositasi ekanligidan kelib chiquvchi maqsad: talabalarda o'zbek tilida muloqot malakasi, ya'ni o'zbekcha og'zaki nutq, o'qish, yozuv ko'nikmalari hosil qilinadi. Nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: gapirish, nutqni tinglab tushunish, o'qish va yozish malakalari egallanadi. O'qishda, mehnat jarayonida, oilada, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish, fikr almashish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish, ixtisoslik leksikasini o'zlashtirish, o'z kasbi doirasida davlat tilida ish yurita olish malakalarini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi;

2) umumta'limiy maqsad: o'zbek tili o'quv fanining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko'nikma va malakalar belgilanadi. Bunda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, ixtisoslikka oid terminologiya va leksikani grammatik jihatdan to'g'ri shakllantira bilish, jumla tuzishda va nutq o'zgarishini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan to'g'ri foydalana olish, o'zbek tilining ilmiy va rasmiy-idoraviy nutq uslubini puxta egallash talab etiladi;

3) tarbiyaviy maqsad: o'zbek tili materiallari orqali talabalarda xalqlar do'stligi, axloqiy va estetik tarbiya, mehnatga munosabatni tarbiyalash amalga oshiriladi. Milliy ma'naviyatni egallash o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o'zida aks ettirgan qimmatli adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o'qib-o'rganish, milliy an'analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat. Shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondashishni taqozo etadi. O'zbek xalqining ixcham va go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi;

4) rivojlantiruvchi maqsad: bunda talabaning til faktlarini tahlil qila olishi, umumlashtirishi, mustaqil xulosa chiqara olishi, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana bilishi, lug'at va qo'llarmalar bilan mustaqil ishlay olishi, darsdan tashqari ishlarga mustaqil tayyorlanishi kabi malakalarga erishishlari ko'zda tutiladi.

O'zbek tili o'quv fani dasturida fan mazmuniga qo'yiladigan malakaviy talablar quyidagicha belgilab qo'yilgan:

Bakalavr "O'zbek tili" fani bo'yicha:

- o'zbek tili mansub bo'lgan til oilasi va guruhi, o'zbek tilining fonetikasi va morfologiyasi, o'zbek tilining gap qurilishini;

- o'zbek tilining so'z boyligi, xususan, ixtisoslik leksikasining qo'llanishi, ma'nolari, sinonimiyasi va uslubiy xususiyatlarini;

- o'zbek tilining publitsistik va ilmiy uslubini;

- rasmiy-idoraviy nutq uslubi xususiyatlari va davlat tilida hujjat tuzish, ish yuritish madaniyatini;

- o'zbek tilida sintaktik jihatidan to'g'ri gap tuza olishni;

- bog'lanishli matn tuzish, uni ijodiy o'zgartirish, qisqartirish va kengaytirishni;

- tanlagan sohasidagi axborot materiallarini o'zbek tiliga va aksincha o'z ona tiliga erkin tarjima qilishni;

- og'zaki va yozma nutqda o'zbek tilining grammatik qoidalarini qo'llay olishi, o'z ixtisosligi bo'yicha o'zbek tilida maqola, risolalar tayyorlashda lug'atlardan foydalana olish;

- so'zlarni o'rinli qo'llay olish, o'qish va keyingi mehnat faoliyati jarayonida o'zbek tilida muloqotga kirisha olish, yetarli yozma va og'zaki savodxonlikka ega bo'lish;

- o'zbekcha nutqning barcha uslublarida bitilgan matnlarni o'rganishda egallagan bilim va ko'nikmalarini qo'llash, o'zbek tilida ish yuritish ko'nikmalarini o'z faoliyatiga tatbiq eta olish va ixtisosligi sohasidagi kitob, maqolaga taqriz yoza bilish, boshqalar fikriga munosabat bildirish, turli nutqiy vaziyatlarda o'z fikrini o'zbek tilida asosli bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

Shuningdek, o'zbek tili fanini davlat tili sifatida puxta egallash uchun har bir talaba o'zbek tilining og'zaki va yozma nutq shakllarini to'liq o'zlashtirishi, uning so'z boyligidan grammatik bilimlar asosida to'g'ri foydalana bilishi, kundalik turmush va tanlangan ixtisosligiga oid mavzularda o'zbekcha erkin muloqotga kirisha olishi zarur. Shunga ko'ra, talabalar o'zbek tili fanidan:

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida o'zbek tilining fonetikasi, grammatikasi bo'yicha egallagan bilimlarini to'ldirishi va rivojlantirishi;

- o'zbek tilining so'z boyligi, soha atamalaridan gap tuzish va uni nutq uslublarida to'g'ri qo'llashda foydalana bilishi;

- kasbiy atamalarni tushunishi, ularni mutaxassisligi mavzusidagi muloqotda mustaqil qo'llay olishi;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mutaxassisligiga oid mavzularda bog'lanishli matn tuza olishi va bunday matnlarni tarjima qilishi;

- o'zbek xalqining tarixi, an'analari, urf-odatlar, mustaqil davlatimizning ijtimoiiy-iqtisodiy taraqqiyoti to'g'risidagi turli nutqiy vaziyatlarda erkin muloqotga kirisha olishi;

- ixtisoslikka oid ilmiy atamalarni to'g'ri o'qish, ma'nosini izohlay bilish, ular ishtirokidagi gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzishni bilishi va amalda qo'llay olishi;

- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda o'zbek tilining grammatik qoidalar, me'yorlariga amal qilgan holda mustaqil ifodalashi;

- o'z ixtisosligi bo'yicha lug'atlardan foydalangan holda maqola, turli rasmiy ish hujjatlarini tayyorlay bilishi;

- davlat tilida yetarli yozma savodxonlikka ega bo'lish, ish yuritish ko'nikmalarini mehnat faoliyatiga erkin tatbiq eta bilishi;

- o'zbek tilidagi turli matnlarni, xususan, ixtisoslikka oid matnlarni tushunib o'qishi va tarjima qilishi;

- o'zbek tilining lug'aviy boyligi va ixtisoslik atamalaridan o'rinli foydalanish, ular yordamida o'z fikr-mulohazalarini asosli bayon etish tajribasiga ega bo'lishi zarur.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2011-yilda o'zbek tili fanidan yangi namunaviy dastur tasdiqlandi. Mazkur dastur 70 soatga mo'ljallangan. Sizga taqdim qilinayotgan qo'llanmada 24 ta nutqiy mavzu yuzasidan o'quv materiallari taqdim qilingan. Ularda Siz – talabalarning o'zbek tilidan egallagan bilim, malaka va ko'nikmalaringizni mustahkamlash, tanlagan ixtisosligingiz doirasida davlat tilini puxta egallashlaringizga ko'maklashish, nutqingizni kasbiy atamalar bilan boyitish nazarda tutilgan.

Har bir nutqiy mavzu bo'yicha asosiy matn keltirilib, ularga qo'shimcha matn, ya'ni bayon qilingan o'quv materialini mustahkamlash va chuqurlashtirishga, amaliy ko'nikma va malakalaringizni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv materiallari kiritilgan. O'rganilishi zarur bo'lgan o'zbek tilining grammatik qoidalar yuzasidan nazariy ma'lumot tushunarli, sodda tilda bayon qilingan.

Har bir mavzu yuzasidan topshiriqlar, muammoli va qiziqarli savollar taqdim qilingan. Bunday materiallarning berilishi olgan nazariy bilimlaringizni amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Ayniqsa, uyga vazifa sifatida taqdim qilinishi nazarda tutilgan topshiriqlarga alohida ahamiyat qaratilganligi, sizlarning imkoniyatlaringiz